3-4-SINF TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Rustamova N.B
Guliston davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, tabiiy fanlar, interaktiv platforma, boshlang‘ich ta’lim, tajriba-sinov, pedagogik samaradorlik.

Tadqiqotning dolzarbligi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va “Xalq ta’limini rivojlantirish milliy dasturi”da boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosiy vazifalar qatorida belgilangan. 3-4-sinflar tabiiy fanlarini o‘qitishda an’anaviy usullarning cheklangan imkoniyatlari, o‘quvchilarning raqamli muhitda o‘sganligi va o‘qituvchilarning yetarli tajribaga ega emasligi ushbu muammoni hal qilishni taqozo etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. 3-4-sinflar tabiiy fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish va “Tabiiy fanlar endi juda oson” interaktiv platformasining samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning vazifalari. 3-4-sinflar tabiiy fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish; metodik tizimni takomillashtirish; mezon va ko‘rsatkichlarni aniqlash hamda tajriba-sinov ishlari orqali samaradorlikni tekshirish; natijalarni umumlashtirib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari. Nazariy (adabiyotlar tahlili, me’yoriy hujjatlarni o‘rganish, umumlashtirish), empirik (pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, test o‘tkazish, tajriba-sinov ishlari) va statistik (natijalarni matematik qayta ishlash, t-meyori) metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. “Tabiiy fanlar endi juda oson” interaktiv platformasi yaratildi. Platforma O‘zbekiston darsliklari mazmuniga moslashtirilgan, to‘liq o‘zbek tilida bo‘lib, videodarslar, interaktiv o‘yinlar, testlar, qiziqarli faktlar va rasmlarni o‘z ichiga oladi.

Tajriba-sinov ishlari Boyovut tumani 6-sonli va Guliston shahar 7-sonli maktablarida 121 nafar 4-sinf o‘quvchisi ishtirokida o‘tkazildi. Tajriba sinflarida yuqori darajadagi o‘quvchilarning o‘sishi 11,4-11,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat sinflarida bu ko‘rsatkich 2,8-4 foizni tashkil etdi. Tajriba sinflarida quyi darajadagi o‘quvchilar ulushi 2 baravarga kamaydi. Statistik tahlil natijalari farqlarning ishonchli ekanligini ko‘rsatdi.

O‘tkazilgan so‘rovnomada o‘qituvchilarning 98,2 foizi platformadan foydalanishga tayyor ekanliklarini bildirdi. O‘qituvchilarning 72,5 foizi platforma darslarni qiziqarli va samarali o‘tishga yordam berishini, 64,2 foizi sifatli materiallar topish imkonini berishini, 55,0 foizi dars tayyorlash vaqtini qisqartirishini ta’kidladi.

Xulosa. “Tabiiy fanlar endi juda oson” platformasi 3-4-sinf tabiiy fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali vositasidir. Platforma O‘zbekistonning “Raqamli ta’lim” milliy strategiyasini amalga oshirishga, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarda mustaqil fikrlash hamda ekologik savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-6079-son. 2020-yil 5-oktabr.
2. Xidirova M.Q. Raqamli ta’limda andragogik kompetentlikni takomillashtirishning istiqbollari: monografiya. – Guliston, 2023. – 127 b.
3. Jo‘rayeva N.N. Tabiiy fanlarni o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish // International conference proceedings. – London, 2023. – B. 245-250.
4. Xalilova F.M. Tabiatshunoslik darslarida o‘quvchilar tasavvur va tushunchalarini shakllantirish hamda rivojlantirish // Scientific progress. – 2021. – Vol. 2, No. 6. – B. 188-194.

Mullis I.V.S., Martin M.O. TIMSS 2019 Assessment Frameworks. – Boston, 2019. – 160 p.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.